

## ULUG' MUTAFAKKIR ALISHER NAVOIYNING DAVLAT VA JAMIYATNI BOSHQARISHGA OID IQTISODIY MEROSI

**Mahsutaliyev Abdusalom Hasanovich –  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti , i.f.n.**

### *Annotatsiya*

Mazkur maqolada ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning ilmiy-iqtisodiy merosi bo'lgan «Mahbub ul-qulub» asaridagi iqtisodiy g'oyalar tadqiq etilgan. Asarda, mutafakkirning davlat va jamiyatni adolatli boshqarish, savdo-tijorat, taqsimot va bunyodkorlikka oid masalalariga iqtisodiy qarashlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq, ijtimoiy adolat, savdo-tijorat, pul, zakot, baho, savdogar,

Dunyo xalqlari tamaddunida nafaqat o'zbek xalqi, balki turkiy elatlarning ilmiy - ma'naviy va tarixiy - iqtisodiy merosida, uning madaniyati xalqaro miqyos kasb etishida buyuk shoirimiz, davlat va jamoat arbobi faxr-iftixorimiz, ma'naviy doxiymiz Alisher Navoiyning o'rni, uning xizmatlari beqiyosdir. Hozirga qadar xalqimiz, xususan, yoshlarimiz uni she'riyat mulkingning sultoni deb tanib keldilar. Biroq Alisher Navoiy ilmiy merosi shu qadar boy va keng qirraligi, unda iqtisodiyot masalalariga doir ko'pgina qimmatli g'oyalar ham o'z ifodasini topgan. Buyuk mutafakkirimizning iqtisodiy qarashlari uning bir umrlik kitobi bo'lgan «Mahbub ul-qulub» («qalb sevgilisi») asarida bayon qilingan.

Hech kimga sir emaski, insoniyat doimo ijtimoiy adolat tamoyillari o'rnatilgan adolatli demokratik jamiyat qurishni orzu qilib keladi. Butun mustaqillik uchun kurash maqsadi ham xuddi ana shu ezgu maqsadni ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Buyuk shoirimiz Alisher Navoiy ham o'zining bugun ongli faoliyatini mazkur umuminsoniy maqsadga qaratgan edi. Asarda taqsimot munosabatlariga, ularning adolatli tashkil etilishiga e'tiborni qaratdi, xususan, xizmatga yarasha taqdirlash (haq to'lash) masalasi diqqat markazida turdi. U yasovul misolida shunday deydi: «Agar u

xizmatiga yarasha haq, olishi hayolida bo'lsa, u ota merosi va ona suti kabi haloldir» («Mahbub ul-qulub», I., 1983, 21-bet).

Bu yerda Alisher Navoiy ikkita iqtisodiy g'oyani ilgari suradi: birinchidan, mehnatning miqdori va sifatiga muvofiq taqdirlanish fikri bo'lsa, ikkinchidan, mehnatiga yarasha haq olish «ona sutidek halol» ekanligi haqidagi fikr uqtirilgan. Aytib o'tishimiz kerakki, hozirgi davrda ham bu masala dolzarb bo'lib qolmoqda.

Alisher Navoiy zamonida tashqi savdoning rivojlanganligi sabablaridan biri, savdogarlarning faqat karvonsaroyda istiqomat qilib savdo qilishlari emas, balki bozorlarda maxsus do'konlar ochib o'z mamlakatlaridan keltirilgan mollarni ana shu do'konlarda sotuvchilarning mavjudligidir.

Alisher Navoiy mahalliy savdogarlar va ajnabiy savdogarlar faoliyatini kuzatar ekan, ular haqida o'z fikrini bayon qiladi: “Savdogar dastlab halol rizq topishi, jamiyatga xizmat qilishi kerak. U tog'larning toshi va dasht sahrolarining qumlari ustida tuya suradi, dengiz mavjlari va suv toshqinlaridan foyda va zarar ko'radi, halol rizq topaman deb uzoq mashaqqatli yo'llarni bosadi. Ayrim savdogarlar xaridorlarni, ayniqsa faqirlarni aldab, ularning hisobiga yashaydilar, shu sababli ularning bo'yinlarida faqirlarning haqlari bor”.

Bu maqsadga, hozirgi zamon tili bilan aytganda, baho mexanizmi orqali erishadilar. Ikkinchidan, o'z mol-mulkini kam ko'rsatib davlatga boj to'lash bilan diniy soliqni inkor qiladilar. Bu orqali muhtojlarga taqsimlab berilishi ko'zda tutilgan sha'riy zakot - diniy soliqni inkor qiladilar.

Navoiy zamonidagi bozorlarni ta'minlashda shahar hunarmandlarining roli katta bo'lgan. Hunarmandchilik ishlab chiqarishi shaharliklar va atrof qishloqlardagi aholi ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan bo'lib, mahsulotlarning bir qismini dashtlarda yashovchi ko'chmanchi aholiga sotish uchun mo'ljallab tayyorlangan. Bozordagi xaridorlarning eng ko'p qismini dehqonlar tashkil qilib, ular bu yerga qishloq xo'jalik mahsulotlari olib kelar va o'zlariga kerakli hunarmandchilik buyumlarini xarid qilishardi. Ko'pchilik hunarmandlar haqida Navoiy yaxshi bayon qilsa ham, ko'pchiliklarini olibsotarlardan qolishmaslikda ko'rsatib o'tadi: “Ular savdoga

berilib, oxiratni unutadilar. Insof va adolat torozisi borligini tan olmaydilar. O'g'il otani aldashi - bularning hunarlari..."

Ko'rinib turibdiki, bu g'oya «qanday qilib bo'lmasin, tirikchilik o'tkazilsa bo'ldida» qabilidagi fikrga tamomila ziddir. YOshlarda, barcha fuqarolarda iqtisodiy tarbiya masalasi ilgari surilayotgan bir vaqtda buyuk shoirimizning yuqoridagi g'oyasi naqadar ahamiyatli ekan-ligi tushunarlidir.

Shu narsa ma'lumki, Alisher Navoiy feodalizm munosabatlari xukmron bo'lgan bir davrda yashab ijod etdi. «Mahbub ul-qulub» asarida Alisher Navoiy jamiyatning boyishida savdo-sotiq tijorat ishlari muhim rol o'ynashi haqidagi iqtisodiy g'oyani markantilistlardan bir asr ilgariyoq asoslab bergan ekan. «Savdogar, — deb yozadi buyuk allomamiz, — yolg'iz foydani niyat qilmasligi», «savdo qilib foyda topaman, deb ortiqcha kema so'rmasligi», «mol va pul ko'paytiraman, deb jonsarak bo'lmasligi kerak». «Savdogar boj-xiroj berish o'rniga o'z molini yashirib, o'z obro'sini to'kmasa yoki topgan-tutganini merosxo'rlari sotib sovurishi uchun to'plab qo'ymasa yoki biror yomon xodisa ko'zlash uchun sarflamasa, jamg'armasa yaxshi bo'ladi» (o'sha asar, 33-bet).

Aytganlarga xulosa yasab, Alisher Navoiy quyidagi ajoyib tavsiyalarni beradi: “Savdogar yolg'iz foydani niyat qilmasligi, foyda qilaman deb o'zini qattiq mashaqqatga qo'ymasligi, savdo qilib, foyda qilaman deb dengizga kema surmasligi, dur olaman deb nahang og'ziga qo'l solmasligi, mol va pul ko'paytiraman deb jonsarak bo'lmasligi kerak...”. SHuningdek, “nafis matolarni ayab, eski chopon kiymasligi, lazmatli taomlarni ko'zi qiymay qattiq non yemasligi lozim. Uning tortgan qiyinchiliklari tirikchiligining yaxshi o'tishi uchun xizmat qilsa va topgan foydasi ko'ngil farog'ati uchun sarflansa yaxshi bo'ladi...”.

Alisher Navoiyning tijorat haqidagi fikrlarining ko'plari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Alisher Navoiyning savdogarlar to'g'risidagi fikrlari huddi bugun bizning savdogarlar va tijoratchilar uchun aytilayotgandek tuyuladi.

Bayon etilgan yuqoridagi iqtisodiy fikrlardan quyidagi iqtisodiy xulosalarga kelish mumkin: **birinchidan**, savdo, bozor, tijorat, muomala jarayoni (oldi-sotdi)

iqtisodiyotni rivojlantirishda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Zero, ular tovarlar taqchilligini tugatishga xizmat qiladi. **Ikkinchidan**, savdo davlat byudjeti daromadining manbai, mamlakat iqtisodiy kudratining tayanchlaridan biridir, zero, savdogarlar davlat xazinasiga boj-xiroj to'lab turish bilan moliyaviy munosabatlarda muhim rol uynaydilar. **Uchinchidan**, allomamiz savdogarlarni insofga, diyonatga chaqiradi, ulardan faqat o'z foydasini ko'zlab ish tutmaslikni talab qiladi.

Tijoratning muhim nazariy asoslaridan biri qiymat qonuni bo'lib, qiymatning umumiy o'lchovi puldir. Navoiy pulning qiymat o'lchovi funktsiyasi haqida chuqur mulohaza qilganligini alohida ko'rsatib o'tish kerak. Ma'lumki, mahsulotning qiymati unga sarflangan mehnat bilan o'lchanadi. "Mahbubul qulub" asarida yozilishicha, bir xumdondan mingta sopol idishlar chiqar, qiymati bir tangadan ortiq bo'lmas, kunda yuztasi sinsa ham birov achinmasdi. CHinni idishning qiymati - uni tayyorlashdagi qiyinchiligiga yarasha balanddir, uni asrashda ham qiymatiga yarasha ahamiyat beriladi.

Navoiy bahoning shakllanishi faqat mahsulot yetishtirishga sarflangan mehnat bilangina emas, balki talab va taklifga ham bog'liq ekanligi haqida fikr yuritadi. SHu bilan birga ayrim savdogarlarning o'z tashabbuslari bilan narx-navoni haddan tashqari oshirib yuborganliklarini qayd qiladi. Bunday narxni oshirib sotuvchilarga, savdogarlarga nisbatan jazo choralari ko'rishni ko'zda tutib, insof va adolat torozusi bilan narxni tartibga solishni tavsiya qiladi.

Ma'lumki, mazkur davrda (hatto eng taraqqiy etgan mamlakatlarda ham) asosiy ishlab chiqaruvchi kuch dexqonlar bo'lgan, jamiyatning iqtisodiy ahvoli, kelajak taraqqiyoti, odamlar farovonligi ham ularga borliq bo'lgan. Alisher Navoiy o'z daxosi bilan dehqonlarning moddiy ne'matlar yaratuvchi aso-siy kuch ekanini, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taqdiri ularga bog'liq ekanini ko'ra bildi. U yozdiki, «Olamning obodonligi dehqondan, mehnat tut shodon, ular shodon». «Dehqon qanday ekin ekishga qilsa harakat — elga ham oziq-ovqat yetkazar, ham barakat»(o'sha asar, 36-bet).

Alisher Navoiy ham o'z davrida vazir va davlat arbobi sifatida bu muammo bilan ko'p to'qnash kelganligi, u bilan bevosita shug'ullanganligi tarixiy manbalardan ma'lum. Hikoyat qilishlaricha, u davlat tomonidan aholiga solingan soliqlarni hatto o'z hisobidan to'lab yuborgan, bu bilan xalq ahvolini bir oz yengillashtirgan.

Tabiiyki, u vazir hamda amir sifatida soliq nazariyasi va amaliyotidan xabardor bo'lgan. Ana shu nuqtai nazardan Alisher Navoiy asarlarida soliq masalasi o'z ifodasini topganligiga taajjublanmasa ham bo'ladi. Ayni vaqtda u oddiy odamlarga «soliqni to'lashdan bosh tortmaslikni maslahat beradi, zero bunday xatti-harakat «o'z sheriklariga jafu qilishlik» bilan barobardir», deydi. Alisher Navoiining soliq haqidagi, boj-xiroj to'lash haqidagi fikrlari mustaqil davlatimiz soliq tizimi haqidagi bilimlarimizning tarixiy asoslarini bilib olishga yordam berishi tabiiydir.

Alisher Navoiining «Maxbub ul-qulub» asarida «qiymat» kategoriyasi ham ma'lum ma'noda o'z ifodasini topgan. Albatta, mazkur asarda bu murakkab iqtisodiy tushuncha (qiymatning ta'rifi berilgan) to'la holda ilmiy asoslab berilmagan. Alisher Navoiyning qiymat haqidagi fikri chinni idish misolida shunday ta'riflanadi: «Chinni idishning — uni tayyorlashdagi qiyinchiligiga yarashaligi bilandir; uni asrashda ham qiymatga ahamiyat beriladi. Qiymati oz narsaning — hurmati oz» (o'sha asar, 7 8-bet). Bu yerda biz uchun ahamiyatli bir xulosa shuki, xali G'arb adabiyotlarida kiy-mat tushunchasi uchramagan bir davrda bizning buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy qiymatning miqdoriy jihatini tushunib yetdi va uni o'z asarida ta'rifladi.

Alisher Navoiy odamlarni xunarli bo'lishga, doimo harakat bilan yashashga, tadbirkorlik, tejamkorlik xislatlarini egallashga undaydi. Alisher Navoiy bu haqda shunday deydi: «Har bir ishdan foyda ko'rganingda bajar, uni bajarishda qiyinchiliklar va ikkilanishlar paydo bo'lsa, mashaqqati ozroq tomoniga kuch ber, qiyinchiligidan erinmaslik chorasini ko'r» (o'sha asar, 71-bet). Ko'rinib turibdiki, bu g'oyalarda tadbirkorlikning mazmuni, xosiyati chuqur mantiqiylik bilan bayon qilingan, ularda inson aql-zakovat bilan ish yuritishga da'vat etilgan.

Navoiy mamlakatdagi ichki bozorlarni rivojlantirishda tashqi savdoni rivojlantirish ahamiyatini alohida ko'rsatadi. SHu munosabat bilan Navoiy- ning

Astroboddan Husayn Boyqaroga yo'llagan xati diqqatga sazovordir. Bu xatda shunday deb ko'rsatiladi:

«Yana ulkim, devoniylarga hukm bo'lsakim, atrofdin kelgan bozurgonlar (savdogarlar)ning jonibin rioyat qilsalar (ularning manfaatlariga zarar yetkazilmasa). Ul viloyatda “tamg'o” lafzi mazkur bo'lmasa (savdogarlarga boj solinmasa). Zakotni (mulkdan olinadigan soliqni) shar' va hukm (shariat va qonun) yo'suni bila zakotchilar alardin mustaxlas qilsalar (olsalar). Zakotchilar ishidan tavschi (taftishchi, kontrolyor) moh-bamoh, balki hafta bahafta vuqub topib (xabardor bo'lib, tekshirib ko'rib), arzga yetkursalar, juz'iy jarima (ozgina gunoh) qilganni qulliy siyosat qililsa bok yo'qdir (qattiq jazoga tortilsa zararsizdir), to bu ovoza olam mamolikiga (mamlakatlariga) yoyilsa, tujjorning rujun ko'proq bo'lsa (savdogarlarning kelishi kuchayadi).

Husayn Boyqaro o'z “risola”sida ko'rsatib o'tganidek, xorijiy savdogarlarga sharoit yaratish yo'lida Navoiy tavsiyasi asosida ko'p tadbirlar amalga oshirilgan. “...Har bir rabotda fasod ahlining buzuqlarning yomon ishlarini daf etish uchun va talonchilikni man etish uchun hukumat xizmatchilaridan bir to'dasi va doimiy askarlardan bir guruhi jilmay turadigan qilib tayinlab qo'yilgan”.

Alisher Navoiy iqtisodiyotning muhim jihati bo'lgan mulk masalasiga e'tiborni qaratadi. U mulkni to'g'ri tasarruf etish, resurslar, iqtisodiy shart-sharoitlardan unumli foydalanish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik kerak, deydi. Ana shunda odamlar to'q va farovon yashashlari mumkinligi haqidagi iqtisodiy qarashni ilgari suradi. «Isrof qilish soxiylik emas o'rinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik demas. Halol molni qo'ydirganni devona, deydilar, yorug' joyda ham yoqqanni aqldan begona, deydilar», — deb yozadi (o'sha asar, 69-bet). Asarda yozilishicha, Alisher Navoiy mulozimlar bilan tez-tez uchrashib turadi, ular bilan suxbatlar quradi, qo'sh va ekinlar haqida, dehqonlarning axvoli, tirikchilik o'tkazishi, iste'mol buyumlarining narx-navolari bilan qiziqadi, ular bilan muloqotlar uyushtiradi. U o'z xo'jaligida ish yurituvchilarga omborlarda qolgan o'tgan yilgi g'allaning bir qismini mamlakat qo'shinlariga ajratishni va bir qismini beva-bechoralarga ehson sifatida ulashib berishlarini

topshiradi. Ayni chog'da bunday xayrli ishga tezdan tayyorgarlik qurishni buyuradi. Ko'rinib turibdiki, ulug' bobokalonimiz o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkni davlat xavfsizligini ta'minlash, odamlarga tinch mehnat sharoiti yaratib berish, qiynalib qolgan odamlarga moddiy yordam berib turish kabi olijanoblik hislatlarini o'zida muxassamlashtirgan buyuk inson edi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy "Maxbub ul qulub" T., 1993.
2. A.A. Razzoqov. N.T. O'rmonov. O'rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g'oyalari. Ma'ruza matnlari. T.: 2005,
3. Sh. Toshmatov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi. 2021
4. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi: Darslik/Sh.H.Tashmatov, X.S.Asatullayev, Z.G.Allaberganov; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019
5. Yadgarov Ya.S. Istoriya ekonomicheskix ucheniy : uchebnik / Ya.S. Yadgarov. -5-ye izd., pererab. i dop. - Moskva : INFRA-M, 2023.
6. Xakimov N.X. "Istoriya ekonomicheskix ucheniy" /Uchebnik. Tashkent: "Imzo Print Media Group", 2022
7. Alessandro Roncaglia. A Brief History of Economic Thought. Cambridge University Press, 2017. (Ushbu darslik universitet ARMda PDF variantda mavjud).
8. Joseph R. Cammarosano. The Development Of Economic Thought: An Overview. Lexington Books, 2018
9. Gafurov U.V, Xamidova Z.A. Iqtisodiyot nazariyasida munozaralar. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta ta'lim vazirligining 2021 yil 18 avgustdagi 356-sonli buyrug'iga asosan chop etilgan. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. 2021 yil